XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 2 - avgust VI-62-138-9-129-K/23 Xovos tuman hokimligi

Xovos tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 126-moddasiga hamda“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga, muvofiq Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1.Xovos tuman hokimining tuman mahalliy byudjetining shakllangan qo‘shimcha manbalari (erkin qoldiq) hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman majburiy ijro buyurosining talabnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin va tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

4. Byudjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining moliya-iqtisodiyotva kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishva tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi B.Xudoyberdiyevga yuklatilsin.

Sessiya raisi **G‘.E.RAYIMNAZAROV**

Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining
2023-yil 2-avgustdagi
VI-62-138-9-129-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xovos tuman 2023 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

ming so'mda

T/r	Xovos tuman budjet tashkiloti nomi	O‘zgartirishga taklif
	Xovos tumani bo'yicha jami	**25 167,9**
	jumladan:	
1	*Tuman hokimligining davlat boji xarajatlari uchun*	**25 167,9**